


AMIR TEMURNING DAVLAT BOSHQARUVI MASALALARI SOVET DAVRI TARIXSHUNOSLIGIDA: BAHOLAR VA YODNASHUVLAR

Shamukaramova Feruza Shakirovna,
tarix fanlari doktori, katta ilmiy xodim
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti
ORCID: 0009-0006-4667-3077;
e-mail: shferuza@yandex.ru
https://doi.org/10.66803/2026.1.182

Annotatsiya. Maqola sovet davri tarixshunosligida Temur (1336–1405; hukmronlik yillari (1370–1405) va Temuriylar (1370–1507) davrining davlat boshqaruvi masalalariga berilgan baholarni manbashunoslik va tarixshunoslik yondashuvlar kesimida tahlil qiladi. V.V. Bartold, A.Yu. Yakubovskiy, I.I. Umnyakov, I.M. Mo‘minov ishlarida markazlashgan davlat qurilishi, ma’muriy tizim, harbiy tashkilot, soliq va pul muomalasi, shaharsozlik hamda diplomatiya masalalariga yondashuvlar ko‘rsatilib, ularning sovet mafkurasi bosimi ta’sirida vaqt o‘tishi bilan qanday transformatsiyalangani yoritiladi. Metodologik asos sifatida tarixiylik va qiyosiy tahlil usullari qo‘llanib, 1950–1974-yillardagi akademik nashrlar va mavzuga doir alohida tadqiqotlar korpusida baholarning ideologik qayta talqinlari xaritalanadi. Natijalar sovet davrida Amir Temur shaxsiyati va boshqaruv tizimining ijobiy hamda salbiy jihatlari selektiv yoritilganini, ayniqsa iqtisodiy masalalar (er munosabatlari, soliq va b.) yetarlicha ishlanmaganini ko‘rsatadi. Xulosa qismida mustaqillikdan keyingi tadqiqotlar uchun ochiq qolgan yo‘nalishlar, jumladan, iqtisodiy-huquqiy institutlar va arxiv materiallari asosidagi empirik tadqiqotlar ustuvorligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *Amir Temur, Temuriylar, Movarounnahr, Turkiston, Markaziy Osiyo, davlat boshqaruvi, V.V. Bartold, A.Yu. Yakubovskiy, I.M. Muminov, O‘zbekiston tarixi, sovet davri, Samarqand.*

ВОПРОСЫ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ АМИРА ТЕМУРА В ИСТОРИОГРАФИИ СОВЕТСКОГО ВРЕМЕНИ: ЭВОЛЮЦИЯ ОЦЕНОК И ПОДХОДОВ

Шамукарамова Феруза Шакировна,
доктор исторических наук, старший научный сотрудник,
Институт истории Академии наук Республики Узбекистан
ORCID: 0009-0006-4667-3077;
e-mail: shferuza@yandex.ru

Аннотация. В статье представлен анализ оценки вопросов государственного управления периода Амира Темура (1336–1405; годы правления 1370–1405) и Темуридов (1370–1507) в советской историографии сквозь призму источниковедческих и историографических подходов. На материале работ В.В. Бартольда, А.Ю. Якубовского, И.И. Умнякова, И.М. Муминова рассматриваются интерпретации централизации власти, административной системы, военной организации, налоговой и денежной сфер, градостроительства и дипломатии, а также их

трансформация под влиянием советской идеологии. Методологически применены принципы историзма и сравнительного анализа; осуществлено картирование идеологических переосмыслений в академических изданиях 1950–1974 годов и специальных исследованиях. Результаты показывают выборочность в освещении и оценки личности Амира Темура и институтов управления: культурное наследие и военно-политические аспекты часто акцентировались, тогда как государственная система, экономико-правовые компоненты (земельные отношения, налогообложение и др.) оставались недостаточно разработанными. В заключении обозначены перспективы исследований в постсоветский период, включая эмпирическое изучение институтов на основе архивных фондов, нумизматических и актовых материалов, а также унификацию понятийного аппарата и источниковедческой базы.

***Ключевые слова**: Амир Темур, Темуриды, Мавераннахр, Туркестан, Центральная Азия, государственное управление, В.В. Бартольд, А.Ю. Якубовский, И.М. Муминов, история Узбекистана, советский период, Самарканд.*

STATE ADMINISTRATION UNDER AMIR TEMUR IN SOVIET-ERA HISTORIOGRAPHY: THE EVOLUTION OF ASSESSMENTS AND APPROACHES

Feruza Sh. Shamukaramova
Doctor of Historical Sciences, Senior Researcher,
Institute of History of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
ORCID: 0009-0006-4667-3077;
e-mail: shferuza@yandex.ru

Abstract. This article examines how Soviet historiography assessed the state administration under Amir Temur (1336–1405; years of reign (1370–1405) and the Timurids (1370–1507), focusing on source-based and historiographical approaches. Using the works of V.V. Barthold, A.Yu. Yakubovsky, I.I. Umnyakov, I.M. Muminov as key reference points, it traces interpretations of centralization, administrative design, military organization, taxation and currency circulation, urban development, and diplomacy, and shows how these readings shifted under ideological pressure between the 1950s and 1974. Methodologically, the study applies historicism and comparative analysis to map ideological reframings across academic editions and specialized studies. Findings indicate a selective portrayal of Temur's personality and institutions: cultural and politico-military dimensions were foregrounded, whereas economic-legal components (land tenure, fiscal regime) remained underexplored. The conclusion outlines post-Soviet research priorities, including empirical work on institutions grounded in archives, numismatics, and administrative records, along with standardization of terminology and source criticism.

***Keywords**: Amir Temur, Temurids, Transoxiana, Turkestan, Central Asia, state administration, V.V. Barthold, A.Yu. Yakubovsky, I.M. Muminov, history of Uzbekistan, Soviet era, Samarkand.*

KIRISH

O‘zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixida Amir Temur (1336–1405; hukmronlik yillari 1370–1405) va Temuriylar (1370–1507) davri alohida o‘rin tutadi. Ammo ushbu davr XX asr tarixshunosligi turli siyosiy tuzumlarda turlicha baholangan. Bu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar

Rossiya imperiyasi Turkiston o‘lkasini bosib olgandan keyin, ya’ni rossiyalik sharqshunos, tarixchi tadqiqotchilar, harbiy tarixchilar tomonidan mazkur davrga oid sharq qo‘lyozmalarini izlab topish va tadqiq etish bilan boshlandi. Bu jarayon XX asrning birinchi o‘n yilligidan to 90-yillariga qadar davom etib, Amir Temur va Temuriylar boshqaruvi davri tarixining turli jihatlariga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirildi. Ularning aksariyati Movarounnahr va boshqa mamlakatlarda yaratilgan yozma manbalarni o‘rganish, qiyoslash, tahlil qilish asosida bajarildi. Sovet davrida mazkur mavzuga bag‘ishlangan ilmiy ishlarni bir necha guruhlar bo‘yicha tasniflash mumkin:

- umumtarixiy ishlar (monografiyalar, akademik nashrlardagi qismlar, risolalar, lavhalar, alohida maqolalar);
- davlatchilik institutining alohida masalalari bo‘yicha ishlar;
- me’morchilik tarixi bo‘yicha maxsus tadqiqotlar, arxeologik izlanishlar.

Xozirgi kunda O‘zbekiston tarixining o‘rta asrlar davri qanchalik xolis o‘rganilganligi, qaysi muammolarda ochiq qolgan masalalar mavjudligini aniqlashda Amir Temur davri boshqaruv tizimiga sovet davrida berilgan bahoni tarixshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

MANBALAR VA METODOLOGIYA

Amir Temur va Temuriylar davriga oid yozma manbalar va ilmiy adabiyotlarning u yoki bu masalalarning tarixshunoslik tahlili [Lunin, 1996, s. 13–50; Amir Temur v mirovoy istorii 2001, s. 189–210; Rtveladze, Alimova, 2016, s. 6–11; Abidjanova, 2017, s. 16–42; Alimova, 2017, s. 29–30], bibliografik ro‘yxati bir qator nashrlarda amalga oshirilgan [Lunin, 1969; Lunin, 1996]. Shu bilan birga, ayni shu yo‘nalishda Sh. O‘ljaeva, B. Usmonov, O. Raxmatullaevalar tomonidan dissertatsiya tadqiqotlari amalga oshirilgan. Ushbu ilmiy ishlarning alohida qismlari Amir Temur davrida davlatchilik masalalari sovet davri tarixshunosligining ma’lum bir yillarida berilgan baho va yondashuvlar, qisman tahlilga tortilgan [Uljaeva, 1999; Usmonov, 2004; Raxmatullaeva, 2010]. Ta’kidlab o‘tish kerakki, ushbu ishlarning ko‘pchiligi tarixshunoslik nuqtai nazaridan ham tavsifiy, ham tahliliy xarakterga ega. Ularda Amir Temur davridagi davlatchilik tizimiga sovet davrida berilgan baho tarixshunoslik nuqtai nazaridan alohida tahlilga tortilmagan. Lekin mavjud tarixshunoslik ishlaridan eng batafsil va kompleks tavsif va tahlilni B.V. Lunin (1906–2001) ishlarida ko‘rish mumkin.

Tadqiqot davomida Amir Temur va Temuriylar tarixi sovet davrida nashr qilingan ilmiy ishlar asosiy manbaviy korpusini tashkil qildi. Ularni tahlilga tortish jarayonida ilmiy xulosalarni rivojlanish tendensiyasiga, ya’ni tarixiylik usuli qo‘llanildi. Shu bilan birga, qiyosiy usulni ushbu davrni yoritishda ilmiy nashrlardagi yondashuv sovet davr tarixshunosligining qaysi yillarida va qanday o‘zgarganligini aniqlashda qo‘llanildi. O‘zbekiston o‘z Mustaqilligiga erishgandan so‘ng tarixni bugungi kun nuqtai nazaridan, ya’ni xaqqoniy yoritish ehtiyoji tug‘ilganligi asosiy yondashuv qilib olindi.

MUHOKAMA

XIV asrning ikkinchi yarmi – XV asrlarda Movarounnahrdagi davlat boshqaruvi tarixini batafsil yoritishda rossiyalik sharqshunos olim V.V. Bartold (1869–1930) tadqiqotlari muhim o‘rin egallaydi. Olim ushbu davrni o‘rganishni Rossiya imperiyasi davridanoq boshlagan va sovet davrida davom ettirgan. Olimning Sharq tillarini mukammal bilgani unga mazkur davrga oid yozma manbalarni to‘plash va o‘rganish hamda Markaziy Osiyo, shu jumladan, O‘zbekistonning o‘rta asrlar

tarixi bo‘yicha fundamental asarlarni yaratish imkonini berdi [Bartold, 1901; Bartold, 1963a; Bartold, 1963b; Bartold, 1964a; Bartold, 1964b; Bartold, 1968; Bartold, 1966a].

V.V. Bartoldning Amir Temurning davlatchilik faoliyatiga bergan ilk bahosi “Brokgauza-Yefron” ensiklopedik lug‘atida paydo bo‘ldi. Jumladan, markazlashgan davlatning yaratilishi va chegaralarining mustahkamlanishi borasida olim shunday yozgan: “O‘zining dastlabki yillardagi yakka hokimlik boshqaruvini Temur mamlakatda tartib o‘rnatishga va uning chegaralari xavfsizligiga bag‘ishladi; ...so‘ngra yana Temur aholisining farovonligi uchun mayda mulklarning o‘zaro nizolarini bartaraf etmay turib, davlatda tartib-intizom o‘rnatish mumkin emasligi g‘oyasining vakili sifatida namoyon bo‘ldi” [Bartold, 1901, s. 195].

Shuningdek, Amir Temurning davlatidagi harbiy, fuqarolik masalalarida bunday oqilona boshqaruvning barcha jihatlariga muxtasar to‘xtab o‘tgan olimning yozishiga ko‘ra: “Temur harbiy kuchlarni tashkillashtirish masalalari bilan shaxsan o‘zi atroflicha shug‘ullangan, ... uning o‘z qo‘shini orasidagi mavqei shubhasiz katta edi va u bemalol safdoshlariga suyana olardi. Fuqarolik boshqaruviga qo‘ygan shaxslari esa bir qadar muvaffaqiyatli chiqmadi (Samarqand, Hirot, Sheroz va Tabrizdagi amaldorlari riboxo‘rlik uchun jazolanganlik holatlari kuzatiladi)” [Bartold, 1901, s. 196].

Amir Temurning bunyodkorlik, obodonchilik faoliyatidagi shaharsozlik va ilm-fanni rivojlantirish borasidagi qarashlarini ta’riflagan V.V. Bartold, ular davlatni mustahkamlashga yo‘naltirilganligini ko‘rsatib o‘tadi [Bartold, 1901, s. 196].

Rossiyalik sharqshunos bir necha o‘n yillar davomida ushbu davr bilan shug‘ullanadigan tadqiqotchilarning asosiy adabiyotiga aylangan “Ulug‘bek va uning davri” fundamental monografiyasida Amir Temur davlat boshqaruvi manzarasini barcha jihatlarini ancha mufassal ko‘rsatib o‘tadi [Bartold, 1964b]. Ammo davlatchilik institutlarining tarkibiy qismi bo‘lgan ayrim muhim masalalar V.V. Bartold nazaridan chetda qolgan edi. Jumladan, er munosabatlari, soliq tizimi, pul muomalasi to‘liq ochilmagandi. Ehtimol, u o‘z oldiga bunday maqsadni qo‘ymagandir, ammo Amir Temur davlat boshqaruvida turk-mo‘g‘ul an’analari qo‘llanilganligini ta’kidlab o‘tgan. Pul muomalasida esa, anirog‘i, bu davrda tangalarning zarb qilinishi masalasini olim keyinchalik qisman ko‘rib chiqqan [Bartold, 1966].

V.V. Bartold tadqiqotlaridagi xulosalarda ayrim xatolarga yo‘l qo‘yganligini va keyinchalik, ular boshqa tadqiqotchilar tomonidan inkor etilganligini ham ko‘rsatib o‘tish zarur. Jumladan, V.V. Bartold asarlariga annotatsiyali bibliografiyani nashr qilgan I. Umnyakov ustozining: “Dunyoviy ilm-fan va san’atda Temur va uning vorislari mo‘g‘ullar boshqaruvi davrida madaniy, shuningdek, katta ehtimol bilan iqtisodiy jihatdan o‘sha davr dunyosida birinchi o‘rinda turgan Eronning to‘liq ta’sirida edi. Musulmonlar Movarounnahri, bu borada hech bir an’ana yaratgan emas, bu musulmonlar roviyona ilohiyotida mutlaqo boshqacha ahamiyat kasb etadi”, – deya chiqargan xulosalari mutlaqo asossiz edi [Umnyakov, 1976, s. 97]. Olimning bunday xulosaga kelishiga o‘sha davrda dunyo tarixshunosligida O‘rta Osiyo xalqlari moddiy madaniyati Eron ta’sirida shakllangan degan stereotip mavjud edi. Biroq 1930 yillarning ikkinchi yarmidan boshlab keng ko‘lamda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar va qiyosiy tahlillar mazkur fikrni xato ekanini tasdiqladi.

Shu bilan birga, chingiziylar davri davlatchiligi tizimini tavsiflab, V.V. Bartold: “Chingizxon imperiyasiga xos davlat malarining asosiy jihatlari mo‘g‘ullar egallagan boshqa mamlakatlarga qaraganda O‘rta Osiyoda uzoqroq saqlanib qoldi”, deb ta’kidlagan edi [Bartold, 1963b, s. 149].

Vaholangki, V.V. Bartoldning o‘zi o‘sha davrdagi Markaziy Osiyo tarixining madaniy-tarixiy jarayonlaridagi turk-mo‘g‘ul omili harbiy qurilishi va boshqa tomondan esa musulmon madaniyatining o‘zaro ta’sirini adolat nuqtai-nazaridan ko‘rib chiqib, Amir Temur davlatida muhim jihatlarning mujassamlangani, ammo musulmon madaniyati alal-oqibat ko‘chmanchi unsurlarni engib, o‘ziga bo‘ysundirgani haqida xulosa bergan. U bir qator yozma manbalardagi ko‘plab daliliy materiallarga tayanib, harbiy yurishlarning sababi va maqsadida “iqtisodiy qiziqishlari muhim o‘rin tutgan”i bilan bog‘laydi [Bartold, 1963v, s. 372].

Movarounnahrdagi davlat boshqaruvining yoritilmagan jihatlari V.V. Bartoldning e’lon qilinmagan – “Turkistondagi davlatchilik tarixi to‘g‘risida dastur” (“Programma po istorii gosudarstvennosti v Turkestane”) nomli ishining “Amir Temur davlati” bandidagi to‘rtinchi bobiga quyidagi masalalarni ko‘rib chiqishni rejalashtirilgan edi: “Turkiston Temur davrida. “Sarbadorlar” harakati. 1369 yil qurultoyi. Temurning istilochilik urushlari va uning ahamiyati. Mamlakatning iqtisodiy kuchlari, madaniyati va san’atining rivoji. Savdo, aloqa yo‘llari va irrigatsiyaga g‘amxo‘rlik. Mamlakat boshqaruvining shakllari, uning Temur tomonidan rivojlantirilishi. Davlat hokimiyati tizimida aks etgan ijtimoiy shart-sharoitlar. Ruhoniylar va savdogarlar (er egalari tabaqasi)ning roli” [Tumanovich, 1976, s. 244]. Ehtimol, olimning bu ishi nashr qilinganida Amir Temur boshqaruvi davridagi Movarounnahr davlatchiligi tizimining to‘liq manzarasiga ega bo‘lardik.

Amir Temur davrida davlatchilik tizimini muhim yo‘nalishi bo‘lgan harbiy san’at ham tadqiqotga tortilgan. Harbiy san’at bo‘yicha rossiyalik yirik mutaxassis, harbiy geograf va sharqshunos A.E. Snesarevning (1865–1937) 1923 yilda nashr etilgan maqolasida, “Amir Temur shaxsiga xolisona baho berish kerak”, deya haqqoniy fikr bildirgan [Snesarev, 1923, s. 159–171]. Evropa tarixshunosligida Sharq tarixini noto‘g‘ri talqin etilishiga e’tiroz bildirgan. A.E. Snesarev, Yevropa Osiyoning harbiy sarkardalarini ularga qonuniy tegishli bo‘lgan maqomidan mahrum etib, ularga – “mamlakatni xarob qilgan ahmoq-qattollar”, “maishatboz qonxo‘rlar”, “o‘zboshimchalar”, “buzuqlar” kabi so‘zlar bilan tuhmat qildi, deydi [Snesarev, 1923, s. 102]. Bu fikrlarga umuman qo‘shilmagan harbiy sharqshunos: “Aslida esa, na harbiy jasorati bilan, na istilolarining ko‘lami bilan, na ulkan maqsadlari bilan, na safarbar qilgan qo‘shinlari miqdori bilan va hattoki, taktik shakllarining nozikligi bilan biror-bir evropalik qo‘mondon, “buyuklik” maqomini olgan Temur bilan tenglasha olmaydi”, deya adolatli fikr bildiradi [Snesarev, 1923, s. 101]. Bu kabi shaxslarga baho berishda xolislik tamoyiliga rioya qilish va har tomonlama yondashishga chaqiradi.

Shu ma’noda, A.Yu. Yakubovskiy (1886–1953) tadqiqotlari ham nihoyatda ahamiyatlidir. U XX asrning 30-yillaridan boshlab mazkur davr tarixiga e’tibor qaratgan. Eng muhimi, uning yoshligi Samarqandda o‘tgani bois, bu shaharga alohida mehr qo‘yib, bir qator tadqiqotlarini uning tarixiga bag‘ishlaydi.

A.Yu. Yakubovskiyning dastlabki klassik ishi hisoblangan “Самарканд при Тимуре и Тимуридах” (“Samarqand Temur va Temuriylar davrida”) ocherkida Amir Temur “yirik davlati”ning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq shart-sharoitlar ilmiy-ommabop shaklda bayon etilgan. Xususan, sohibqironning davlat tuzish faoliyatiga quyidagicha baho bergan: “Temurning barcha yurishlarida uning siyosiy yo‘nalishi – yirik feodal davlatni tuzish uchun kurashi” va uning “savdo karvoni yo‘llarini

qo‘riqlanishi” aniq o‘z ifodasini topganligi “uning yurishlardan bo‘lgan haqiqiy dasturi nimalardan iborat bo‘lganini ko‘rsatadi”. “... bu davr talonchilik va qaroqchilikdan iborat bo‘lgan deb o‘ylash xato bo‘lardi. Uzluksiz davom etgan yurishlarda yirik sug‘orish ishlari (Muhon dashtining sug‘orilishi, Xurosondagi Kobul daryosi havzasida kanallarning tortilishi), ko‘priklar qurilishi, eski yo‘llarni tartibga keltirib, yangilariga asos solinishi, shaharlardagi yirik qurilishlar (hunarmandchilik ustaxonalari bo‘lgan bozorlarni bunyod etilishi, saroylar, masjidlar, madrasalar va boshqa qurilishlar amalga oshirildi” [Yakubovskiy, 1933, s. 14–16].

Amir Temur faoliyati xuddi V.V. Bartold tadqiqotlari kabi A.Yu. Yakubovskiyning “Temur (qisqa xarakteristika tajribasi)” nomli ocherkida fundamental asosda batafsil yoritilgan [Yakubovskiy, 1946].

Amir Temurning “jasurligi, saxiyligi, odamlarni ajrata olishi, o‘ziga yordamchilar tanlay olishi, shuningdek, sardorlarga xos sifatlarini yorqin namoyon bo‘lishi” kabi shaxsiy hislatlari qatorida “Movarounnahr hukmdorining qo‘mondonlik iqtidori bilan birga unda ulug‘ davlatchilik aqli” ekanini ta’kidlaydi [Yakubovskiy, 1946, s. 54]. Shuningdek, Amir Temurning Chig‘atoy hukmdori Kebekxon (XIII asr–1326; hukmronlik yillari 1318–1326) davridagi islohotlarni o‘z o‘rnida qoldirib, ularni yanada takomillashtirganligini, Movarounnahrning tumanlarga (viloyatlar yoki rayonlarga – *F.Sh.*) ajratilishi, barcha hududlarda pul va og‘irlik o‘lchovlarining bir xil bo‘lishini ta’minlaganini dalillar bilan ko‘rsatib berdi. [Yakubovskiy, 1946, s. 50–52, 67, 71].

A.Yu. Yakubovskiy tadqiqotlarida Amir Temur markazlashgan davlatni yaratish, uning murakkab tizimini boshqarishi, davlat tayanchi va yaxlitligini saqlab turishi uchun ham juda zarur bo‘lganligi borasida quyidagicha haqqoniy fikrlarni bildirgan: “Temur o‘sha davrdagi siyosiy vaziyatda boshboshdoqlikni engib o‘tib, alohida qaram mulkliklar – vassallarini mustahkam va kuchli davlatga birlashtirish, asosiy vazifa ekanligini juda yaxshi tushungan” [Yakubovskiy, 1946, s. 59], “... Farg‘onadan tashqari, Temur Movarounnahrni parchalamadi, hech kimga bermadi va o‘z qo‘lida mustahkam tutib qoldi. ... Qattiq qo‘llik bilan, Temur o‘z inon-ixtiyoriga barcha qaram mulkliklarini bo‘ysundirishning uddasidan chiqa oldi. Uning amriga bo‘ysunmaganning va o‘z ixtiyorini davlat ixtiyoriga qarshi qo‘yganning holiga voy edi” [Yakubovskiy, 1946, s. 67]. Shuningdek, olim Amir Temurning turli vaziyatlarda o‘z davlati manfaati uchun foydalana oladigan va uzoqni ko‘ra biladigan siyosatchi ekanini bir necha bor ta’kidlagan: “Temur keng xalq ommasi orasida unga shuhrat keltirgan jihat, uning turli darajadagi musulmon ruhoniylari bilan do‘stona aloqalarini saqlab qolganida edi” [Yakubovskiy, 1946, s. 72].

Uning ishlarida Amir Temur davridagi davlatchilik tizimini aks ettiruvchi barcha savollarga javoblar bor [Yakubovskiy, 1925; Yakubovskiy, 1932; Yakubovskiy, 1939; Yakubovskiy, 1947; Yakubovskiy, 1950; Yakubovskiy, 1953]. Gap shundaki, agar olim bir ishida, masalan, harbiy tizim va qurol-aslahalar, jang olib borish taktikasiga alohida e’tibor bergan bo‘lsa, boshqasida soliq tizimi yoki hunarmandchilik rivojini lo‘nda va muxtasar bayon etgan yoki farqli bir ishida, aksincha, mavzuni batafsil yoritgan. Shuni ta’kidlash joizki, sharqshunos olim o‘z tadqiqotlarini G‘iyosiddin Ali (XV asr), Nizomiddin Shomiy (vaf. 1431), Sharafuddin Ali Yazdiy (vaf. 1454), Ibn Arabshoh (1389–1450), Rui Gonsales de Klavixo (vaf. 1412), Muiniddin Natanziy (XIV asr oxiri–XV asr boshi), patriarx Nikon (1605–1681) qo‘lyozmasi, shuningdek, V.V. Bartold ishlarini o‘rganish asosida amalga oshirilgan.

A.Yu. Yakubovskiy tomonidan Movarounnahr davlat tizimining tarkibiy qismi bo‘lgan hokimiyatning legitimligi, ma’muriy bo‘linishi, pul tizimi, erdan foydalanish tartibi, soliqlar,

bunyodkorlik ishlari va me'morchilik, hunarmandchilik bilan bir qatorda Amir Temur armiyasining harbiy tarkibi va ta'minoti kabi masalalari ham atroflicha o'rganilgan [Yakubovskiy, 1946, s. 68–70; Yakubovskiy, 1950, s. 344–354]. Olim sohibqironning qo'mondon sifatida jang olib borish strategiyasidagi novatorligini tavsiflar ekan, "Harbiy tarix Amir Temurni Osiyoning o'rta asrlardagi yirik qo'mondonlari safiga qo'shadi. Uning harbiy mahorati ikki yo'nalishda: qo'shinlarni tashkillashtirishi va qo'mondonligida namoyon bo'lgan", deb ta'kidlaydi [Yakubovskiy, 1946, s. 68].

Davlat tizimi yuzasidan o'z xulosalarini berar ekan, Amir Temurdek buyuk shaxs faoliyatidagi jihatlarga adolat bilan yondashib, "Temur davlatning ishlab chiqarish bazasini va savdo hayotini ko'tarish bilan bog'liq har bir tadbirga ulkan siyosiy ahamiyat bergan", degan xulosaga kelar ekan, "Temur tom ma'noda o'z davrining o'g'loni bo'lgani"ni ham unutmaslikka chaqiradi [Yakubovskiy, 1933, s. 22; Yakubovskiy, 1946, s. 66]. Shu o'rinda qayd etish kerakki, M.E. Masson ham Amir Temur nabirasi Mirzo Ulug'bek faoliyatiga baho berganida, xuddi shunday fikrni ta'kidlagan edi [Masson, 1941, s. 17].

A.Yu. Yakubovskiyning umumiy xulosalari quyidagilardan iborat edi: "Temur – o'ta ziddiyatli shaxs. Uning O'rta Osiyodagi faoliyatida ko'plab ijobiy jihatlar mavjud bo'lib, feodallar nizolari va ularning boshboshdoqliklarini bartaraf etishi bir tomoni bo'lsa, boshqa bir tomondan yirik qurilishlarni amalga oshirgan" [Yakubovskiy, 1946, s. 73].

1950 yili "История народов Узбекистана" ("O'zbekiston xalqlari tarixi") [Trever, Yakubovskiy & Vorones, 1950, s. 345–368] birinchi akademik nashrining chop etilishi O'zbekiston tarixi fanida muhim voqelik bo'lib, unga A.Yu. Yakubovskiyning ocherki, yozma manbalarni tahliliga bag'ishlangan qismidan tashqari, to'liq kiritildi. Amir Temur davlat boshqaruvi davri tarixi 1950-yillar tarixshunosligida A.Yu. Yakubovskiy ishlari o'zining xolisligi va tarixiyligi bilan ajralib turadi. Ammo olimning 1950-yillardan keyingi "Vsemirnaya istoriya" ("Umumjahon tarixi"), "Ocherki po istorii SSSR" ("SSSR tarixidan lavhalar") kabi nashrlarida Amir Temurga bergan bahosi avvalgi xulosalariga nisbatan tubdan o'zgargani kuzatiladi. Xususan: "Na ajoyib qurilishlari, Movarounnahrdagi hunarmandchilik va savdodagi sun'iy ravishda ko'tarilgan gullab-yashnash, na yirik sug'orish ishlari Temurning boy va madaniy mamlakatlarni yakson qilganligini, shaharlarni talon-taroj qilib, hunarmandlarni asir olganligini oqlay olmaydi. Temur boshqaruvi O'rta Osiyo xalqlarining o'ziga salbiy rol o'ynab, Temurning o'tkinchi yutuqlari nohaq tartibotining o'rnatilishi va egallangan mamlakatlarning qashshoqlashuvi hisobiga amalga oshirildi" [Yakubovskiy, 1953, s. 666; Yakubovskiy & Petrushevskiy, 1957, s. 572–587]. Bizningcha, olim sovet davridagi hukmron siyosiy mafkura bosimi ostidadastlabki xulosalariga zid fikr bildirishga majbur bo'lgan.

Xuddi shunday yana bir jihat "O'zbekiston SSR tarixi"ning [Istoriya Uzbekskoy SSR, 1955, s. 313–334] ikkinchi nashrida ham kuzatilib, uning so'zboshisida "O'zbekiston tarixi bo'yicha birinchi nashrda ... ayrim tarixiy arboblarni ideallashtirishda ... jiddiy kamchilik va nuqsonlar o'tib ketgan edi..." [Istoriya Uzbekskoy SSR, 1955, s. 7], deb yozilgan va A.Yu. Yakubovskiy matni qisqartirilgan. Jumladan, "Temur va uning davri" nomli bobi "Temur davlati", "Temurning yoshlik davri" nomli paragraf "XV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrdagi siyosiy vaziyat va Temur davlatining tashkil topishi" deb nomlandi, "Temur yakkahokimligi (1370–1405 yillar)" nomli paragraf "Temurning istilochilik yurishlari (1370–1407 yillar)"ga o'zgartirildi. Faqatgina "Temur davlatining ichki hayoti" nomli 3-§ o'zgarishsiz qoldi. Amir Temur shaxsiy sifatlari tavsiflangan va uning davlatni mustahkamlashdagi roli, O'rta Osiyoni birlashtirishi, *"Rusga ko'rsatgan katta xizmatlari"* kabi

ma’lumotlar qisqartirilib, A.Yu. Yakubovskiyning davlat ijtimoiy-iqtisodiy rivojining muhim jihati bo‘lgan hunarmandlar va hunarmandchilikka bag‘ishlangan bitta fikri va ayrim xulosalarigina qoldirildi. 1950 yildagi nashrda: “Temur davriga kelib, Movarounnahrdagi hunarmandlarning ahvoli ancha yaxshilana boshlandi. Hunarmandlarning aksariyat qismi erkin bo‘lib, faqatgina oddiy feodallar oldiga majburiyatlari bor edi”, deb ta’kidlangan edi [Istoriya narodov Uzbekistana, 1950, s. 362]. Ammo 1955 yildagi nashrda tarix fanidagi sinfiy yondashuv kuchaytirilib: “Temur davrida hunarmandlarning og‘ir ahvolida hech qanday o‘zgarish yuz bermadi” [Istoriya Uzbekskoy SSR, 1955, s. 328], deb o‘zgartirildi.

A.Yu. Yakubovskiyning Amir Temur va Temuriylar davlati haqidagi asosiy qarashlari “Istoriya Uzbekskoy SSR” kitobining uchinchi nashridan ham o‘rin oldi [Istoriya Uzbekskoy SSR, 1967, s. 435–460]. Biroq yangi nashrning Amir Temur davlatiga bag‘ishlangan bobi S.A. Azimjonova va B.A. Ahmedovlar tomonidan qayta ishlanib, ayrim ma’lumotlar bilan to‘ldirildi [Istoriya Uzbekskoy SSR, 1967, s. 13]. Bu erda ham tarix faniga bo‘lgan yanada kuchli mafkuraviy bosim ostida, Amir Temurning u yoki bu darajada davlatni birlashtirish va saqlash borasidagi harakatlari sabablarini tushuntirgan A.Yu. Yakubovskiyga tegishli fikrlar qisqartirildi yoki hukmdorga nisbatan salbiy ma’nodagi “noinsoniy” so‘zlar bilan almashtirildi [Istoriya Uzbekskoy SSR, 1967, s. 456]. Natijada, Amir Temurning O‘rta Osiyo davlatchiligini rivojlantirishdagi tarixiy o‘rni kamaytirildi va A.Yu. Yakubovskiyning ushbu shaxsning hukmdor sifatidagi ham ijobiy, ham salbiy tomonlariga berilgan xolis bahosi buzib ko‘rsatildi. Fandagi bunday holat keyingi yillarda ham davom etib keldi.

Mazkur muammo bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tarixshunosligi tahlilining davriy chegarasidagi eng muhim tadqiqot I.M. Mo‘minovning “O‘rta Osiyo tarixida Amir Temurning roli va o‘rni. Yozma manbalardagi ma’lumotlar asosida” [Muminov, 1968]. Ushbu mashhur ilmiy izlanish matni O‘zbekiston Fanlar akademiyasining 1968 yil 5 iyundagi majlisiga* ma’ruza sifatida taqdim etilganiga qaramay, bu erda ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishning barcha taniqli olimlari ishtirok etishib, uni alohida kitob ko‘rinishida nashrga tavsiya etilganiga qaramay, unga bo‘lgan munosabat va oqibatlar mafkuraviy bosim ostida “yuqorida” salbiy bo‘lgan. Bir tomondan I.M. Mo‘minovning risolasi jamoatchilik orasida Amir Temur shaxsiga va uning davlatchilikdagi shaxsiyatiga bo‘lgan qiziqishni yangidan yanada oshirib yuborgan bo‘lsa, boshqa bir tomondan keskin tanqidlar va hukumatning ayblovlariga sabab bo‘lgan edi.

Umuman olganda, I.M. Mo‘minovning risolasi ilmiy-ommabop xususiyatga ega bo‘lsa-da, uning mazmuni bo‘yicha yozma manbalar doirasidan chiqmagan edi. Bundan tashqari, o‘sha davr nashriga mos bo‘lgan jihat bu tarixiylik prinsipi yoki tarixdagi sinfiy yondashuv qo‘llanilgan va Amir Temur davridagi davlatchilik tizimi masalalari “Temur tuzuklari” asosida yoritilgan edi, xolos [Muminov, 1968, s. 24–28].

O‘z o‘tmishdoshlariga nisbatan I.M. Mo‘minov Amir Temur davlatining ma’muriy tizimi, devonxonalar va ularning qanday bo‘limlardan tashkil topgani va kuchli nazorat qilingani, diplomatik munosabatlar masalalariga bir qadar keng to‘xtalib o‘tgan [Muminov, 1968, s. 22]. Olim o‘rganilishi zarur bo‘lgan bir necha muhim masalalar qatoriga Temur davlatining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarini ham tadqiq etish kerakligini ilgari surib, haligacha “mazkur muammo bo‘yicha biror

* Gap shundaki, 1968 yilda Samarqand shahrining 2500 yillik yubileyi munosabati bilan xalqaro simpoziumga jiddiy tayyorgarlik borayotgan edi.

yirik ilmiy ish nashr qilingani yo‘q” [Muminov, 1968, s. 21], deb ta’kidlaganida haq edi. Shuningdek, muallif, tarixchilar oldidagi vazifalardan yana birini – oddiy xalqning ijtimoiy ahvolini aniqlash uchun “O‘zSSR FA Sharqshunoslik institutida mavjud bo‘lgan fondlardagi davlat arxivlari va hujjatlarni har tomonlama o‘rganish” kerak, deb hisoblagan [Muminov, 1968, s. 24].

I.M. Mo‘minov o‘rtaga tashlagan vazifalar hozirgi kungacha ma’lum bir ma’noda amalga oshirildi va oshirilmoqda. O‘z paytida olim: “Bizning nazarimizcha, V.V. Bartold asarini nashr etish bo‘yicha tahririyatning tanqidiy fikrlariga ko‘ra, muallif Temur faoliyatini bo‘rttirib ko‘rsatgani unchalik ishonarli emas, shu bois tarixiy haqiqat yuzasidan bizning tarixchilarimiz shu yo‘nalishda tadqiqotlar olib borishlari kerak” – deyishga o‘zida jur’at topa oldi [Muminov, 1968, s. 32].

I.M. Mo‘minov og‘ir siyosiy mafkuraviy sharoitga qaramay, Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixidagi roli va uning markazi Samarqand bo‘lgan markazlashgan qudratli davlat tuzishdagi ahamiyatini birinchi o‘ringa olib chiqdi. Gap shundaki, I.M. Mo‘minov risolasining nashr etilishi XX asrning 60–70 yillariga, ya’ni nashrlarda o‘tmishdagi tarixiy shaxslarni, ular orasida “podshohlar, hukmdorlar, xonlarni” olqishlashga qarshi xarakatlar ketayotgan davrga to‘g‘ri keldi [Amir Temur v mirovoy istorii, 2001, s. 202]. Aynan shu narsa “Temurni ideallashtirish”, uning tarixdagi rolini ulug‘lashda I.M. Mo‘minovni ayblashga sabab bo‘ldi. Jurnal va gazetalarning sahifalarida uning risolasiga nisbatan o‘ta salbiy maqolalar paydo bo‘ldi [Abduraximov, 1973; Vaxabov, 1988; Voprosi istorii, 1975/8; Novoselsev, 1973] va ilmiy doiralarda tanqidiy muhokamalar jarayoni boshlanib ketdi. Jumladan, tarixchilarning 1973 yil 21–22 mart kunlari Moskvada, KPSS MKning Fan va ilmiy muasassalar bo‘limida “ayrim ishlarda tarixiy jarayonlarning lenincha konsepsiyasini “yangicha o‘qishga” urinish muhokama qilindi. “... Bir qator kitoblarda o‘tmishni ideallashtirishga, ayrim voqealar va shaxslar (Chingizxon, Temur)ga baho berishda sinfiy qarashlardan chekinishga yo‘l qo‘yilgan”ligi tanqid qilindi [Voprosi istorii, 1975/8, s. 150]. Bunday yondashuv keyinchalik ham davom etdi.

XX asr 60-yillar ikkinchi yarmidagi Amir Temur va Temuriylar boshqaruvi davri tarixshunosligi shunisi bilan ahamiyat kasb ediki, bu vaqtda Samarqand shahrining 2500 yilligini nishonlash uchun tayyorgarlik ketayotgan edi. Shu munosabat bilan tadqiq etilayotgan davr tarixiga bag‘ishlangan maqolalar jadal nashr etila boshlangan vaqtda mazkur tadbirga tayyorgarlik doirasida O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Tarix va arxeologiya instituti Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti bilan hamkorlikda ikki jildlik jamoaviy ish “Istoriya Samarkanda” (“Samarqand tarixi”) kitobi nashr etildi [Istoriya Samarkanda, 1969]. Garchi Samarqand Amir Temur davlatining poytaxti bo‘lgani, Sohibqiron uning gullab-yashnashi uchun katta sa’y-harakatlar qilganiga qaramay, uning ismi davlat boshqaruviga bag‘ishlangan bobning nomlanishiga kirtilmadi ham. Bob “XIV asr oxiri – XV asrda Samarqand” deb nomlandi va uning birinchi bo‘limi “Samarkand – Temuriylar davlatining poytaxti” deb atalib, Amir Temur nomini birinchi o‘ringa olib chiqmaslik uchun umumlashtirildi. Bu bo‘lim muallifi I.M. Mo‘minov bo‘lib, tabiiyki uning risolasidagi materiallar qisman kiritildi, chunki kitobni tayyorlash va nashr etish ishlarini bir vaqtda olib borilayotgan edi [Istoriya Samarkanda, 1969, T.1, s. 163–173].

XX asr 60-yillari so‘nggida shu vaqtgacha kam o‘rganilgan Amir Temur va Temuriylar davlatidagi diplomatik munosabatlar, hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi kabi masalalar tadqiq qilindi. Tabiiyki, bu kabi mavzularning yoritilishi “Samarqand tarixi”da o‘z aksini topdi. Samarqandning G‘arbiy Yepropa davlatlari bilan diplomatik munosabatlari bo‘limi muallifi

I.I. Umnyakov [Istoriya Samarkanda, 1969, T.1, s. 173–195], hunarmandchilik va savdo esa R.G. Mukminova tomonidan yoritildi [Istoriya Samarkanda, 1969, T. 1, s. 195–212].

Ammo o‘z davrida yuqori darajada rivojlangan Amir Temurning G‘arbiy Yevropa bilan diplomatik munosabatlari, garchi 1956 yildagi I.I. Umnyakovning bu mavzuga oid birinchi nashrida mavjud bo‘lsa-da [Umnyakov, 1956; Umnyakov, 1960], O‘zbekiston tarixining akademik nashriga kiritilmadi.

Amir Temur diplomatik mahoratiga xolis baho bergan I.I. Umnyakov: “XIV–XV asrlar doirasida Amir Temur timsoli nafaqat zamondoshlarini o‘ziga jalb etgan, hattoki dunyo siyosati sohasida bo‘lib o‘tayotgan voqealarga o‘z ta’sirini ko‘rsatayotgan edi. Unda o‘z davrining murakkab siyosiy vaziyatini mushohada etish uchun etarli darajada iqtidor bor”, deya ta’kidlagan edi [Istoriya Samarkanda, 1969, T. 1, s. 173].

Ma’lumki, hunarmandchilik ishlab chiqarish va savdoning rivojlanishi masalalari – davlatchilikdagi ijtimoiy-iqtisodiy institutlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Amir Temur davlati tarixiga oid tadqiqotlarda Movarounnahr iqtisodiy rivojining umumiy manzarasi doirasida ko‘rib chiqilgan. Mazkur masalalarni Samarqand shahri doirasida bo‘lsa-da, o‘rta asrlarning ijtimoiy tarixi bo‘yicha taniqli mutaxassis R.G. Mukminova (1922–2007) tomonidan yoritilishi mazkur davr tarixshunosligi uchun katta ahamiyat kasb etdi. O‘z tadqiqotida olima 20 dan ziyod hunarmandchilik sohalarini sanab o‘tdi va tavsifini berdi.

Umumtarixiy nashrlarda aynan Amir Temur boshqaruvi davrida Movarounnahrdagi davlatchilik institutlari rivoji bilan bog‘liq jihatlarga bag‘ishlangan maxsus bo‘limlarning paydo bo‘lishi, O‘zbekiston tarixi fani uchun katta ahamiyat kasb etardi.

Shunday bo‘lishiga qaramay, XX asrning 70-yillarida Amir Temur va Temuriylar davlati tarixi mavzusining u yoki bu jihatlariga oid yangi tadqiqotlar paydo bo‘la boshlagan bo‘lsa-da, tarix faniga va tarixchilarga nisbatan mafuraviy bosimning yanada kuchayganligi 1974 yilda nashr etilgan bir jildli O‘zbekiston tarixining to‘rtinchi nashrida yaqqol namoyon bo‘ldi [Istoriya Uzbekskoy SSR, 1974]. Bu akademik nashrda O‘zbekiston tarixidan o‘sha davr mafkurasiga yot bo‘lgan Amir Temur kabi yorqin siymolarga bag‘ishlangan sahifalar o‘chirib tashlandi. Unda Amir Temur davlatiga umuman na bob va na paragraf ajratilmadi. Bu davrga bag‘ishlangan bob “Dvijenie sarbadarov i likvidatsiya gospodstva chingizidov” (“Sarbadorlar harakati va chingiziylar hukmronligining tugatilishi”) deb nomlanib, bo‘limlari unga mos ravishda: “Vozniknovenie i razvitie dvijeniya sarbadarov” (“Sarbadorlar harakatining vujudga kelishi”; atigi 2 bet), “Obrazovanie sentralizovannogo gosudarstva” (“Markazlashgan davlatning tashkil topishi”; atigi 3 bet) va “Pravlenie Timuridov” (Temuriylar boshqaruvi”; atigi 3 bet) deb nomlandi [Istoriya Uzbekskoy SSR, 1974, s. 92–99].

XULOSA

Shunday qilib, “tarixda shaxsning roli” degan tushuncha, odamlar ongidan o‘chirilganidek, Amir Temur va uning O‘zbekistonda davlatchilikning qayta tiklanishi va taraqqiyotiga bo‘lgan sa’y-harakatlari sovet davri tarixshunosligida o‘chirib tashlashga harakat qilindi. Albatta, uning markazlashgan davlatni yaratish borasidagi umumiy yo‘nalishlari xas-po‘shlanib, ammo oddiy xalqning ezilishi va qo‘zg‘olonlari bo‘rttirib yoritildi.

Sovet davri tarixshunosligida Temuriylar davri davlatchilik tarixi mavjud bo‘lgan marksistik-lenincha mafkura talablari asosida talqin qilindi va baholandi. Bu jarayonni shartli ravishda ikki

bosqichga ajratish mumkin. Birinchi bosqichini 1920–1950 yilgacha deb belgilash mumkin: Amir Temurning faoliyatiga nisbatan xaqqoniy baho berildi va ham ijobiy, ham salbiy jixatlar ko‘rsatildi. Ikkinchi bosqich 1950–1980 yillar – mafkuraviy nazorat kuchayib, “tarixda shaxsning roli” tushunchasi sinfiy yondashuv ostida qoldirildi. Shundan kelib chiqqan holda Amir Temurning O‘zbekiston tarixidagi ahamiyati, davlatchilikni tiklab markazlashgan davlat tizimini shakllantirgani va umumiy taraqqiyotga qo‘shgan xissasi pasaytirilib, aholining ezilishi, sinfiy ziddiyatlar va qo‘zg‘olonlar masalasi bo‘rttirib ko‘rsatildi. Tarix fanidagi bunday yondashuv XX asrning 80-yillari so‘nggiga qadar o‘zgarishsiz qoldi. Bu o‘z navbatida, tarix faniga bo‘lgan mafkuraviy bosimning qanchalar kuchayib borganini ifodaladi.

Sovet davridagi tadqiqotlarning ijobiy tomoni esa mavzuni aynan o‘z sohasining mohir bilimdonlari bo‘lgan sharqshunoslar, arxeologlar, san’atshunoslar, me’morchilik va fan tarixchilari tomonidan Amir Temur va Temuriylar davri madaniy merosini o‘rgana borib, uning siyosati va davlat miqyosidagi qarorlari natijasida paydo bo‘lganligini ko‘rsata olganlarida bo‘lib, bu soha alohida tadqiqotlar mavzusi sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduraimov, M. (1973). Obzor literaturi, posvyashennoy Timuru i Timuridam, izdannoy v Uzbekistane v 60-x godax. – *Istoriya SSSR,* № 5, 47–51. [Abduraimov, M. (1973). A Review of Literature on Timur and the Timurids, Published in Uzbekistan in the 1960s. – *History of the USSR*, No. 5, 47–51. (in Russian)]
2. Abidjanova, D.S. (2017). Istochniki po istorii perioda Amira Temura i Temuridov. Istoriografiya voprosa. / *Istoriya Uzbekistana. Epoxa Amira Temura i Temuridov.* Tashkent: Fan. – C. 16–42. [Abidzhanova, D.S. (2017). Sources on the History of the period of Amir Temur and the Temurids. Historiography of the Issue. / *History of Uzbekistan. The Era of Amir Temur and the Temurids. Tashkent*: Fan. – Pp. 16–42. (in Russian)].
3. Alimova, D.A. (2017). Problemы izucheniya istorii perioda Amira Temura i Temuridov v kontekste gosudarstvennosti. – *«Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat» xalqaro ilmiy konferensiya tezislari.* 2017 yil 13–14 sentyabr. Toshkent: Akademnashr. – S. 29–30. [Alimova, D.A. (2017). The problems of studying the history of the period of Amir Temur and the Temurids in the context of statehood. “Abstracts of the International Scientific Conference ‘Science and Culture in the Timurid Era.’ September 13–14, 2017. Tashkent: Akademnashr. – Pp. 29–30. (in Russian)].
4. Amir Temur v mirovoy istorii. (2001). / Gotovili k izdaniyu: N. Xabibullaev, E. Rtveladze, A. Xakimov i dr. Tashkent: Shark. [Amir Temur in World History. (2001). / Prepared for publication by N. Khabibullaev, E. Rtveladze, A. Khakimov, and others. Tashkent: Sharq. (in Russian)].
5. Bartold, V.V. (1901). Timur (Tamerlan). – *Ensiklopedicheskiy slovar* «Brokgauza-Yefron». T. XXXIII. SPb. – S. 193–197. [Barthold, V.V. (1901). Timur (Tamerlane). – Brockhaus-Efron Encyclopedic Dictionary. Vol. XXXIII. St. Petersburg. – Pp. 193–197. (in Russian)].
6. Bartold, V.V. (1963a). Istoriya kulturnoy jizni Turkestana. – *Sochineniya*. Moskva. Tom II. Ch. I. – S. 169–433. [Barthold, V.V. (1963a). History of the cultural Life of Turkestan. – Works. Moscow. Vol. II. Part I. – Pp. 169–433. (in Russian)].

7. Bartold, V.V. (1963b). Istoriya Turkestana (Konspekt leksiy po istorii Turkestana s drevneyshix vremen do zavoevaniya yego russkimi). *Sochineniya*. Moskva. T. II. Ch. 1. – S. 109–168. [Barthold, V.V. (1963b). History of Turkestan (Lecture notes on the history of Turkestan from ancient times to its conquest by the Russians). Works. Moscow. Vol. II. Part 1. – Pp. 109–168. (in Russian)].
8. Bartold, V.V. (1963v). Mesto prikaspiyskix oblastey v istorii musulmanskogo mira. – *Sochineniya.* Moskva. T. II. Ch. 1. – S. 650–772. [Barthold, V.V. (1963c). The Place of the Caspian Regions in the History of the Muslim World. – Works. Moscow. Vol. II. Part 1. – Pp. 650–772. (in Russian)].
9. Bartold, V.V. (1963g). Temur i Temuridi. Razdel VI. «Istorii Turkestana». – *Sochineniya.* Moskva. T. II. Ch. I. – S. 157–162. [Barthold, V.V. (1963g). Timur and the Timurids. Section VI. "Histories of Turkestan". – Works. Moscow. Vol. II. Part I. – Pp. 157–162. (in Russian)].
10. Bartold, V.V. (1964a). Mir Ali-Shir i politicheskaya jizn. – *Sochineniya.* Moskva. T. II. Ch. 2. – S. 199–260. [Barthold, V.V. (1964a). Mir Ali-Shir and Political Life. – Works. Moscow. Vol. II. Part 2. – Pp. 199–260. (in Russian)].
11. Bartold, V.V. (1964b). Ulugbek i yego vremya. – *Sochineniya.* Moskva. T. II. Ch. 2. – S. 23–196 (Sarstvovanie Timura). [Bartold, V.V. (1964b). Ulugh Beg and His Time. Works. Moscow: Nauka. Vol. II. Part 2. – Pp. 23–196 (Timur's Reign). (in Russian)].
12. Bartold, V.V. (1966a). Kultura musulmanstva. – *Sochineniya.* Moskva. T. VI. – S. 141–204. [Barthold, V.V. (1966a). The Culture of Islam. Works. Moscow. Vol. VI. – Pp. 141–204. (in Russian).]
13. Bartold, V.V. (1966b). Moneti Ulugbeka. – *Sochineniya.* Moskva. T. IV. – S. 362–364. [Barthold, V.V. (1966b). Ulugh Beg's Coins. Works. Moscow. Vol. IV. – Pp. 362–364. (in Russian)].
14. Bartold, V.V. (1968). Dvenadsat leksiy po istorii tyurskix narodov Sredney Azii (Leksiya XI–XII). *Sochineniya*. T. V. Moskva. – S. 169–182. [Barthold, V.V. (1968). Twelve lectures on the history of the Turkic peoples of Central Asia (Lectures XI–XII). Works. Vol. V. Moscow. – Pp. 169–182. (in Russian)].
15. Bibliograficheskiy ukazatel. (2001). – *Amir Temur v mirovoy istorii.* Tashkent: Shark. – S. 261–282. [Bibliographic Index. (2001). – Amir Temur in World history. Tashkent: Sharq. – Pp. 261–282. (in Russian)].
16. Vaxabov, M.G. (1988). O pravde – tolko pravda. – *Pravda Vostoka*. 21 iyunya. [Vakhabov, M.G. (1988). About the truth – Only the truth. – Pravda Vostoka. June 21. (in Russian)].
17. Voprosi istorii. 1975. № 8. [Questions of History. 1975. No. 8. (in Russian)].
18. Istoriografiya epoxi Amira Temura. – *Amir Temur v mirovoy istorii.* Tashkent: Shark, 2001. – S. 189–210. [Historiography of the Era of Amir Temur. – Amir Temur in World History. Tashkent: Sharq, 2001. – Pp. 189–210. (in Russian)].
19. Istoriya Samarkanda. (1969). V dvux tomax. T. 1. Tashkent: Fan. [History of Samarkand. (1969). In two volumes. Vol. 1. Tashkent: Fan. (in Russian)].
20. Istoriya Uzbekskoy SSR. (1955). T. I. Kniga pervaya. Tashkent: Izd-vo AN UzbSSR. [History of the Uzbek SSR. (1955). Vol. I. Book One. Tashkent: Publishing House of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR. (in Russian)].

21. Istoriya Uzbekskoy SSR. (1955). T. I. Kniga pervaya. Tashkent: Izd-vo AN UzbSSR. [History of the Uzbek SSR. (1955). Vol. I. Book One. Tashkent: Publishing House of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR. (in Russian)].
22. Istoriya Uzbekskoy SSR. (1967). T. I. Tashkent: Fan. [History of the Uzbek SSR. (1967). Vol. I. Tashkent: Fan. (in Russian)]
23. Istoriya Uzbekskoy SSR. (1974). *S drevneyshix vremen do nashix dney.* Tashkent: Fan. [History of the Uzbek SSR. (1974). From ancient times to the present day. Tashkent: Fan. (in Russian)].
24. Lunin, B.V. (1969). Istoriya, kultura i iskusstvo vremeni timuridov v sovetskoy literature (Bibliograficheskiy ukazatel). – *Obshestvennыe nauki v Uzbekistane.* № 8–9. – S. 101–145. [Lunin, B.V. (1969). History, culture, and art of the Timurid era in Soviet literature (Bibliographic index). – Social sciences in Uzbekistan, No. 8–9, 101–145. (in Russian)].
25. Lunin, B.V. (1996). Amir Temur va uning davriga oid manbalar. – *Temur va Ulug‘bek davri tarixi.* Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati. – B. 230–264. [Lunin, B.V. (1996). Sources on Amir Temur and his era. – History of the era of Temur and Ulugbek. Tashkent: Main editorial office of dictionaries. – Pp. 230–264. (in Uzbek)].
26. Lunin, B.V. (1996). Temur va uning davri tarixini o‘rganishga oid asosiy manbalar. Temur va uning davri haqida ilmiy adabiyotlar. Folklordagi Temur obrazi. Badiiy adabiyotlarda Temur tavsifi. Temur qiyofasini yaratish masalalari. – *Temur va Ulug‘bek davri tarixi.* Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati. – B. 13–50. [Lunin, B.V. (1996). Main sources for studying the history of Temur and his era. Scientific literature about Temur and his era. The image of Temur in folklore. Description of Temur in fiction. Issues of creating the image of Temur. – History of the era of Temur and Ulugbek. Tashkent: Main editorial office of dictionaries. – Pp. 13–50. (in Uzbek)].
27. Masson, M.E. (1941). Observatoriya Ulugbeka. Tashkent: Fan. [Masson, M.E. (1941). Ulugh Beg Observatory. Tashkent: Fan (in Russian)].
28. Muminov, I.M. (1968). Rol i mesto Amira Timura v istorii Sredney Azii. V svete dannыx pismennix istochnikov. Tashkent: Fan. [Muminov, I.M. (1968). The role and place of Amir Timur in the history of Central Asia. In the light of written sources. Tashkent: Fan. (in Russian)].
29. Novoselsev, A.P. (1973). Ob istoricheskoy otsenke Timura. – *Voprosi istorii,* № 2, 3–20. [Novosel'tsev, A.P. (1973). On the historical assessment of Timur. – Questions of History. No. 2. – Pp. 3–20. (in Russian)].
30. Pugachenkova G.A. (1950). Samarkandskaya keramika XV veka. – *Trudi SAGU.* Vip. XI. Tashkent. – S. 91–120. [Pugachenkova G.A. (1950). Samarkand ceramics of the 15th century. – The works of SAGU. Vol. XI. Tashkent. – S. 91–120. (in Russian)].
31. Raxmatullaeva A.R. (2010). Istoriografiya jizni i deyatelnosti Amira Temura v Uzbekistane (1991 – 2009). Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni kandidata istoricheskix nauk. Tashkent. [Rakhmatullaeva A.R. (2010). Historiography of the Life and Work of Amir Temur in Uzbekistan (1991–2009). Abstract of a Dissertation for the Degree of Candidate of Historical Sciences. Tashkent. (in Russian)].
32. Rtveladze, E.V., Alimova, D.A. (2016). Issledovatelskie podxodi k istorii epoxi Temura i Temuridov (prinsipi raboti nad kollektivnoy monografiey). – Temuriylar davri yozma merosining tarqalishi va o‘rganilishi. VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Toshkent: Mashhurpress.

– S. 6–11. [Rtveladze, E.V., Alimova, D.A. (2016). Research Approaches to the History of the Era of Temur and the Temurids (Principles of Working on a Collective Monograph). – The spread and study of the written heritage of the Timurid period. Materials of the VIII Republican Scientific and Practical Conference. Tashkent: Mashhurpress. – P. 6–11. (in Russian)].

33. Snesarev, A.E. (1923). Russkiy Vostok kak zadacha kraevednogo izucheniya. – V kn.: Voprosы kraevedeniya. Nijniy Novgorod. – S. 159–171. Kak otdelnaya statya pereizdano v jurnale «Vostok». 1993. № 3. http://www.snesarev.ru/trudi/russkiy_vostok.html. [Snesarev, A.E. (1923). The Russian East as a Task of Local History Study. – In the book: Questions of Local History. Nizhny Novgorod. – P. 159–171. Republished as a separate article in the journal "Vostok". 1993. No. 3. http://www.snesarev.ru/trudi/russkiy_vostok.html. (in Russian)].
34. Trever K.V., Yakubovskiy A.Yu., Vorones M.E. Istoriya narodov Uzbekistana. (1950). T. I. S drevneyshix vremen do nachala XVI veka. Tashkent: Izd-vo AN UzSSR. [Trever K.V., Yakubovsky A.Yu., Voronets M.E. History of the Peoples of Uzbekistan. (1950). Vol. I. From Ancient times to the beginning of the 16th century. Tashkent: Publishing House of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR. (in Russian)].
35. Tumanovich, N.N. (1976). Opisanie arxiva V. V. Bartolda. Moskva: Glavnaya redaksiya Vostochnoy literaturi. – S. 233–467. [Tumanovich, N.N. (1976). Description of the Archive of V.V. Bartold. Moscow: Main Editorial Board of Eastern Literature. – P. 233–467. (in Russian)].
36. Uljaeva Sh.M. (1999). Istoriografiya epoxi Amira Temura i Temuridov 50 – 60-x godov XX veka (na primere literaturi sovetskogo perioda). Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni kandidata istoricheskix nauk. Tashkent. – 27 s. [Ulzhaeva Sh.M. (1999). Historiography of the Era of Amir Temur and the Temurids of the 1950s–1960s (Based on the Literature of the Soviet Period). Abstract of a dissertation for the degree of Candidate of Historical Sciences. Tashkent. – 27 p. (in Russian)].
37. Umnyakov, I.I. (1956). Mejdunarodnie otnosheniya Sredney Azii v nachale XV veka. Snosheniya Timura s Vizantiey i Fransiey.– *Trudi Uzbekskogo gosudarstvennogo universiteta im Alishera Navoi.* Vip. 61. Samarkand. – S. 179–200. [Umnyakov, I.I. (1956). International Relations of Central Asia at the Beginning of the 15th Century. Timur's Relations with Byzantium and France.– Transactions of the Alisher Navoi Uzbek State University. Issue 61. Samarkand. – Pp. 179–200. (in Russian)].
38. Umnyakov, I.I. (1960). Iz istorii mejdunarodnix otnosheniy Sredney Azii s Zapadnoy Yevropoy v nachale XV v. – *Izvestiya AN UzSSR. Seriya obuęstvennix nauk.* Tashkent. № 1. – S. 27–33. [Umnyakov, I.I. (1960). From the history of International Relations of Central Asia with Western Europe at the Beginning of the 15th Century. – Bulletin of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR. Social Sciences Series. Tashkent. No. 1. – Pp. 27–33. (in Russian)].
39. Umnyakov, I.I. (1976). Annotirovannaya bibliografiya trudov V.V.Bartolda. Moskva: Glavnaya redaksiya Vostochnoy literatury. – S. 8–229. [Umnyakov, I.I. (1976). Annotated Bibliography of V.V. Barthold's Works. Moscow: The main editorial office of Eastern literature. – P. 8–229. (in Russian)].
40. Usmonov B.A. (2004) Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining Rossiya tarixshunosligida yoritilishi (XVIII–XX asrlar). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. Toshkent. [Usmonov B. A. (2004) Coverage of the life

and state activities of Amir Temur in Russian historiography (18th – 20th centuries). Abstract of the dissertation for the degree of Candidate of Historical Sciences. Tashkent. (in Russian)].

41. Yakubovskiy, A.Yu. (1925). Obrazi starogo Samarkanda (Vremya Timura). – *Vostok. Kn. 5.* Moskva-Leningrad. – S. 140–163. Yakubovsky, A. Yu. (1925). Images of old Samarkand (The Time of Timur). – Vostok. Book 5. Moscow-Leningrad. – P. 140–163. (in Russian)].
42. Yakubovskiy, A.Yu. (1932). Feodalnoe obshestvo Sredney Azii i yego torgovlya s Vostochnoy Yevropoy v X – XV vv. – *Materialы po istorii Uzbekskoy, Tadjikskoy i Turkmenskoy SSR.* Chast 1. Leningrad. – S. 1-60. [Yakubovsky, A. Yu. (1932). Feudal society of Central Asia and its trade with Eastern Europe in the 10th – 15th centuries. – Materials on the history of the Uzbek, Tajik, and Turkmen SSR. Part 1. Leningrad. – Pp. 1-60 (in Russian)].
43. Yakubovskiy, A.Yu. (1933). Samarkand pri Timure i Timuridax. Leningrad. [Yakubovsky, A. Yu. (1933). Samarkand under Timur and the Timurids. Leningrad. (in Russian)].
44. Yakubovskiy, A.Yu. (1939). Mastera Irana v Sredney Azii pri Timure. – *V kn.: Iranskoe iskusstvo i arxeologiya. III Mejdunarodniy kongress po iranskomu iskusstvu i arxeologii. Dokladы.* Moskva–Laningrad, 1939. – S. 277–285. [Yakubovsky, A. Yu. (1939). Masters of Iran in Central Asia under Timur. – In: Iranian Art and Archaeology. III International Congress on Iranian Art and Archaeology. Papers. Moscow–Lanigrad, 1939. – Pp. 277–285. (in Russian)].
45. Yakubovskiy, A.Yu. (1946). Timur (opit kratkoy xarakteristiki) – *Voprosi istorii.* № 8–9. – S. 42–74. [Yakubovsky, A. Yu. (1946). Timur (an attempt at a brief characterization) – Questions of History. No. 8–9. – Pp. 42–74. (in Russian)].
46. Yakubovskiy, A.Yu. (1947). Iz istorii padeniya Zolotoy Ordi. – Voprosi istorii. № 2. – S. 30–45. [Yakubovsky, A.Yu. (1947). From the History of the Fall of the Golden Horde. – Questions of History. No. 2. – Pp. 30–45. (in Russian)].
47. Yakubovskiy, A.Yu. (1950). Padenie Zolotoy Ordi. – *V kn.: Grekov B.D., Yakubovskiy A.Yu. Zolotaya Orda i yee padenie.* Moskva-Leningrad. (Glava «Borba Timura i Toxtamisha v 80-x godax XIV veka»). – S. 216–428. [Yakubovsky, A.Yu. (1950). The Fall of the Golden Horde. In: Grekov, B.D., Yakubovsky, A.Yu. The Golden Horde and Its Fall. (Chapter "The Struggle between Timur and Tokhtamysh in the 1380s"). Moscow-Leningrad. – Pp. 216–428. (in Russian)].
48. Yakubovskiy, A.Yu. (1953). Srednyaya Aziya v XIII – XV vv. – *Ocherki istorii SSSR. Period feodalizma*. Ch. II. Moskva: Izd-vo AN SSSR. – S. 648–679. [Yakubovsky, A. Yu. (1953). Central Asia in the 13th–15th Centuries. Essays on the History of the USSR. The Period of Feudalism. Part II. Moscow: Publishing House of the USSR Academy of Sciences. – Pp. 648–679. (in Russian)].
49. Yakubovskiy, A.Yu., Petrushevskiy, I.P. (1957). *Obrazovanie gosudarstva Timura. Poxodi Timura i yego vnutrennyaya politika. Iran pod vladыchestvom Timura i timuridov. – Vsemirnaya istoriya.* T. III. Moskva. Gl. XXXVII. – S. 572–587. [Yakubovsky, A.Yu., Petrushevsky, I.P. (1957). Formation of Timur's State. Timur's Campaigns and His Domestic Policy. Iran under the rule of Timur and the Timurids. World History. Vol. III. Moscow. Ch. XXXVII. – P. 572–587. (in Russian)].